

**EKOLOGIYA SOXASIGA RESPUBLIKA BYUDJETIDAN AJRATILGAN
MABLAG'LAR VA ERISHILGAN NATIJALAR****Axmedov Kamol***Lavozim: Iqtisodiyot va moliya vazirligi Bo'lim boshlig'i***KIRISH**

Ekologik barqarorlik masalasi bugungi globallashtirish davrida eng muhim dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tez sur'atlarda kamayishi va antropogen faoliyat oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik inqiroz holatlari jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda milliy byudjet mablag'larining samarali taqsimlanishi va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Respublika byudjetidan ekologiya sohasiga ajratilayotgan mablag'lar nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishda ham asosiy o'rin tutadi. Ushbu mablag'larning ta'sirchanligini oshirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro ekologik standartlarga mos siyosat olib borish talab etiladi.

Mazkur tezisda ekologik faoliyatni moliyalashtirish va uning natijadorligini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlarni ko'rib chiqadi. Ayniqsa, ekologik loyihalarga ajratilgan mablag'lar doirasida erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot orqali milliy miqyosda ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy qarorlarning ahamiyati ochib beriladi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu soha global va milliy miqyosda turli yondashuvlarni talab qiladi. Xalqaro darajada ekologik siyosatni shakllantirish bo'yicha BMT, Jahon banki, va Xalqaro ekologiya tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan hisobotlar iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi va resurslarning degradatsiyasi kabi omillarni tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan. Masalan, BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida qabul qilingan ekologik ko'rsatkichlar iqtisodiy rivojlanish bilan ekologik muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

Milliy miqyosda, O'zbekistonning ekologik muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham keng qamrovli. Jumladan, respublika ekologiya qo'mitasi hisobotlari, mahalliy va xalqaro ilmiy maqolalar, hamda xalqaro grant loyihalari bo'yicha hisobotlar O'zbekiston hududida ekologik barqarorlikni ta'minlashning o'ziga xos omillarini yoritadi. Ayni paytda, mamlakatda amalga oshirilayotgan "Yashil Makon" tashabbusi hamda chiqindilarni boshqarish sohasidagi loyihalar xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslash orqali yuqori samaradorlikka erishayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga,

akademik tadqiqotlarda ekologik moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash masalasiga kam e'tibor qaratilgani aniqlangan.

18-sentyabr kuni AOKAda "Ekologiya vazirligining sohadagi faoliyati ko'rsatkichi: erishilgan natijalar va istiqboldagi rejalar hamda ekologik ta'limni rivojlantirish istiqbollari" mavzuida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Tadbir davomida 2024-yilning olti oyi davomida olib borilgan faoliyatning bir nechta yo'nalishlari bo'yicha erishilgan yutuqlar e'lon qilindi.

Mana ularning qisqartirilgan ro'yxati. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil bahorida 138 million daraxt ekildi. Vazirlik va hududlarda mahalliy hokimliklar tomonidan 257 ta "yashil bog" tashkil etilib, ularning umumiy soni qariyb ikki barobarga ko'paydi. Shuningdek, ochiq byudjet tizimi orqali "Mening bog'im" loyihasi ishga tushirilgani haqida ham ma'lum qilindi. Fuqarolar tomonidan ishlab chiqilgan 738 ta loyihadan 215 tasi g'olib deb topilib, jami 48,7 milliard so'm mablag' ajratildi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish va monitoringini olib borish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar orasida atrof-muhitga ta'sir etuvchi 11296 ta obyekt davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazildi. 52 ta yirik sanoat korxonasida chang va gaz yig'ish uskunalari o'rnatilib, modernizatsiya qilindi.

Davlat o'rmon xo'jaligi 220 ming gektar maydonda o'rmon plantatsiyalarini barpo etdi. Jumladan, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yida 215 ming gektar, tog'li va tog' oldi hududlarida 2 ming gektar maydonda o'rmonzor va o'rmonlarni tiklash ishlari amalga oshirildi.

Cho'l, tog' va tog' oldi hududlarida cho'llanish va qum ko'chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish maqsadida 140 gektar maydonda himoya o'rmon plantatsiyalari barpo etildi.

Suv va yer resurslarini, shuningdek, yer osti va yer usti suvlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari doirasida 37 korxonada mahalliy tozalash inshootlari rekonstruksiya qilindi yoki qayta qurildi. Bosh prokuratura bilan birgalikda poytaxtdagi "Salar", "Bektemir" va "Bo'zsuv" suv tarmoqlariga ifloslantiruvchi moddalarni oqizayotgan 44 ta korxonaga nisbatan chora ko'rildi, 12 ta korxonada kanalizatsiya tarmog'idan uzildi.

Chiqindilarni qayta ishlashni takomillashtirish va tartibga solish jarayonida mavjud 209 ta maishiy chiqindi poligonining 26 tasi sanitariya-epidemiologiya va ekologik talablarga javob bermagani va resurslaridan oshib ketgani sababli yopildi. 183 ta maishiy chiqindi poligoni va 8 ta zaharli kimyoviy chiqindi poligoni "Chiqindilar poligonini boshqarish" direktsiyasi balansiga o'tkazildi.

Yashil maydonlarni inventarizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar doirasida sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida 254,1 million daraxtning koordinatalari aniqlandi va yashil maydonlarning raqamli xaritasi yaratildi. 553,1 mingdan ortiq daraxtning pasporti yaratilib, raqamlashtirildi. Fanlar akademiyasi bilan birgalikda qo'shni respublikalar bilan chegaradosh hududlar orqali ko'chib o'tadigan yovvoyi hayvonlarning yillik sonini

aniqlash bo'yicha idoralararo elektron axborot almashinuvi tizimi ishga tushirildi va bu hayvonlar turlarining ro'yxati shakllantirildi.

Ekologik nazorat jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzgan 33 ming 378 nafar shaxs aniqlandi. Qonun hujjatlariga muvofiq qonunbuzarlarga 35,5 milliard so'm ma'muriy jarima va tabiatga yetkazilgan zararining o'rnini to'ldirildi. Shundan 28,5 milliard so'm undirildi.

Ekologik ta'lim sohasida 10 ta ilmiy, 12 ta amaliy va 3 ta innovatsion loyihalar amalga oshirildi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida 6 ta monografiya va 59 ta maqola (shundan 17 tasi xorijiy nashrlarda) chop etildi.

Gidrometeorologiya xizmatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar doirasida 20 gidrologik post zamonaviy avtomat suv o'lchash uskunalari bilan jihozlandi.

"Zamin" xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlari ma'muriy markazlari hamda Toshkent shahrida monitoring.meteo.uz saytiga har 10 daqiqada haqqoniy axborotni uzatadigan 16 ta yangi avtomat stansiya o'rnatildi.

O'zbekistonning ekologik muammolarini hal qilishda 2024-yilda ko'rilgan choralar va erishilgan natijalar mamlakatda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Yirik loyihalar orqali ekologik salohiyatni oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, va yashil iqtisodiyotga o'tish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

O'zbekiston yillik 14 million tonna chiqindining faqat 4-5 foizini qayta ishlaganiga qaramay, 2024-yilda qator yangi chiqindilarni qayta ishlash zavodlari qurilishi boshlangan. Jumladan, Andijon va Toshkent viloyatlarida ikki zavod 630 mln kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun har kuni 4 ming tonna chiqindini qayta ishlaydi. Ushbu loyihalar natijasida yiliga 4,7 mln tonna chiqindi yo'q qilinadi va 2,1 mlrd kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, bu esa tabiiy gaz iste'molini 152 mln kubometrqa qisqartiradi va issiqxona gazlarini 2,4 mln tonnaga kamaytiradi.

O'zbekiston Global Yashil O'sish Instituti (GGGI) yordamida yashil iqtisodiyot loyihalariga \$1 milliard jalb qildi. Ushbu mablag' asosan iqlimga mos qishloq xo'jaligi va barqaror moliyalashtirish standartlarini joriy etish uchun yo'naltirildi.

Respublika bo'ylab 347 yangi avtomatlashtirilgan havo monitoring stansiyalari o'rnatildi, bu esa havo ifloslanishini real vaqt rejimida kuzatishga imkon berdi. Ushbu choralar Toshkentda chang bo'ronlari va sanoat chiqindilarining zararli ta'sirini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

2024-yilda ko'rilgan choralar natijasida O'zbekistonda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun qo'shimcha 1200 ish o'rnini yaratildi. Ushbu tendensiyalar davom etar ekan, 2030-yilga borib chiqindilarni qayta ishlash ulushi 25 foizga yetishi va havo sifatining o'rtacha ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi kutilmoqda. Yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar esa yalpi ichki mahsulotning 3 foizga oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu natijalar ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi va boshqa davlatlar uchun ham namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

O'zbekistonning ekologik siyosati ichki va xalqaro talablarni inobatga olgan holda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, bioxilma-xillikni asrash va resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlash borasida xalqaro hamjamiyat uchun namuna sifatida xizmat qilishi mumkin.

Davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va yashil texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish kelgusida yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alloberdiyeva D. EKOLOGIYA SOXASIDA VAKOLATLI BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI MISOLIDA //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 7-11.

2. Atajanovna A. M. MARKAZIY OSIYO EKOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASH MUAMOLARI VA YECHIMLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 40. – №. 4. – С. 78-85.

3. Latipovich X. A. EKOLOGIK QONUN TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK AMERIKA, GERMANIYA TAJRIBASI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 26-30.

4. <https://anhor.uz/uzl/ekologiya/o-zbekiston-ekologiya-vazirligi-2024-yilning-birinchi-yarim-yilligidagi-faoliyat-bo-yicha-natijalarni-e-lon-qildi/>

5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/ekologiya-sohasiga-ajratilgan-byudjet-mablaglari-qanday-sarflanmoqda>